

O‘zbek tili (Davlat tili)

BSB-1 (20 ball)

8-sinf

Topshiriqli diktant

Kuz. Olam oltin rangga burkangan, dalalarda kuz nafasi kezib yuribdi. Soylar horg‘in sharqirab, qushlarni issiq o‘lkalarga kuzatyapti. Bog‘larda mevalar yetilib pishgan. Bobodehqon dalalarda yig‘im-terim ishlarini boshlab yuborgan. Barglar butun atrofga sochilgan, kuz yo‘liga to‘shalgan poyandozga o‘xshaydi. Tabiat dam olishga intilgan, quyosh ham erinchoqlik bilan nur taratib inson ruhiyatiga qish kelayotganidan darak beradi. Olamni ajib nafosat qurshovida qoldirgan kuz qir-adirlar, tog‘- u toshlar oralab bor iforini olamga sochib, qishki uyquga ketishga hozirlik ko‘rayotgan tabiatni allalayotgandek go‘yo...

BSB-1 bo‘yicha amaliy topshiriqlar:

1. Matnga mos sarlavha qo‘ying.(2 ball)
2. Matnda berilgan fe’llarni toping, ularning nisbatini aniqlang. (3 ball)
3. ***Olam oltin rangga burkangan, dalalarda kuz nafasi kezib yuribdi.*** Ushbu gapni ona tilingizga tarjima qiling.(qoraqalpoq, qozoq, tojik, turkman,rus). (3ball)
4. “Mevalar yetilib pishgan” gapidagi **yetilib** so‘zi o‘rniga qaysi so‘zni qo‘llasa gapning ma’nosi o‘zgarmaydi? (2ball)
- 5.

Har bir to‘liq bajarilgan topshiriq uchun belgilangan 2-3 ball, jami 10 ball.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi, grammatik vositalarning so‘zlarga qo‘shilishi bilan bog‘liq imlo qoidalarini bilishlari va ushbu qoidalariga amal qilishlari zarurligi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, tinish belgilarini o‘tilgan mavzular doirasida to‘g‘ri qo‘llay olishlari zarurligi hisobga olingan.

Diktantni baholashda quyidagi mezon belgilanadi:

№	Baholash mezonlari	Ball
		10
1	matn husnixat bilan yozilgan, imlo xatolarsiz, yoki 3 tagacha imloviy, 3 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	10
2	matn husnixat bilan yozilgan, imlo xatolar soni 4 tagacha, ishoraviy xatolar 4 tagacha bo'lsa;	9
3	matn imlo qoidalariga asosan yozilgan, 5 tagacha imlo xatolar, 5 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	7-8
4	matn imlo qoidalariga asoslanib yozilmagan, 7 tagacha imlo xatolar, 7 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	5-6
5	matn imlo qoidalariga asoslanib yozilmagan, 9 tagacha imlo xatolar, 9 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	3-4
6	matn imlo qoidalariga asoslanib yozilmagan, 10 tagacha imlo xatolar, 10 tagacha ishoraviy xatolar mavjud bo'lsa;	1-2
7	imlo xatolar soni 12 va undan ortiq bo'lganda diktant baholanmaydi yoki 0 qo'yiladi	0

● **Eslatma:**

1. Diktantda xatolar soni har xil bo'lsa, baholashda imloviy xatolar soniga qaraladi.
2. Tuzatishlar soni 5 tadan oshsa 1 ball pasaytiriladi.
3. Diktantda bir so'zdagi xato takror uchrasa 1 xatoga hisoblanadi.

- **Ogohlantirish:** o'quvchi **diktantni** xatosiz yozgan bo'lsa, lekin husnixati talab darajasida bo'lmasa 1 ball olib tashlanadi.

Maktab:	
Sinf:	8
Fan:	O'zbek tili
Sana:	
Nazorat ishi:	Topshiriqli diktant
Maqsadi:	BSB-1
Chorak:	I

O'quvchining F.I _____

To'plagan bali _____

Fan o'qituvchisi : _____

Jami ball: 10 ball

Topshiriqlar:

1. Matnga mos sarlavha qo'ying.(2ball)

2. Fe'llarni ajrating, ularning nisbatini aniqlang. (3 ball)

3. *Olam oltin rangga burkangan, dalalarda kuz nafasi kezib yuribdi.* Ushbu gapni ona tilingizga tarjima qiling.(qoraqalpoq, qozoq, tojik, turkman,rus) (3ball)

4. "Mevalar yetilib pishgan" ushbu gapdagi **yetilib** so'zi o'rniga qaysi so'zni qo'ysak gapning ma'nosi o'zgarmaydi? (2 ball)